



## THE QUESTION OF WOMEN'S WILL IN "BUTTERFLY SEASON"

Charos Avazova

Student of ToshDO'TAU Named After Alisher Navoi

charosavazova@gmail.com

## "KAPALAK MAVSUMI" DA AYOLLAR ERKI MASALASI

Charos Avazova,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU talabasi

charosavazova@gmail.com

### Annotatsiya

Ayollar obrazi hozirda san'atning barcha turlarida (kino, teatr, haykaltaroshlik, rassomchilik, raqs, badiiy adabiyot, san'atshunoslik, psixologiya va b.) muhim muammo sifatida o'rganilmoqda. Buyuk asarlarning bosh ilhomchisi aksariyat hollarda ayollar bo'lgan. Maqolada ham roviy ayol obrazini o'rganish asnosida turli psixologik qatlamlar ochib berildi. Undan badiiy asar tahlili jarayonida foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar:** ayol, ruhiyat, erk, kapalak, qobiq, isyon, xohish-istak.

### Annotation.

The image of women is currently being studied as an important issue in all forms of art (cinema, theater, sculpture, painting, dance, fiction, art history, psychology, etc.). The main inspiration for great works was mostly women. The article also reveals various psychological layers in the study of the image of the narrator. It can be used in the process of analyzing a work of art.

**Keywords:** woman, psyche, will, butterfly, shell, rebellion, desire.

Yapon adabiyoti o'ziga xosligi, janrlar xilma-xilligi va mazmunan boyligi, serqirraligi bilan o'zbek kitobxonini qiziqtirib kelgan. Bu durdonalari ichida novella, xususan, ramziy novella adabiyotshunoslar e'tiborini tortayotgani bejiz emas. Yapon adabiyoti tarixida bu janr takomiliga munosib xissa qo'shgan yozuvchilardan biri Latsuko Takaxasi (1932 — 2013)dir. Uning qator asarlarida ayollar obrazi va ruhiyatini yoritish birlamchi masala bo'lgan. "Osmonning oxirigacha", "Yolg'iz ayol", "G'azab bolasi" shular jumlasidandir. Darhaqiqat, insonshunoslik bo'lmish adabiyot birinchi navbatda ayolshunoslik, ya'ni ayolni o'rganish, inkishof etish ilmidir. Kuzatsak, eng qadimgi asarlar ham ayolga bag'ishlangan, ular konfliktini ayol va unga aloqador narsalar tashkil etadi<sup>1</sup>. Hozir biz tadqiq qilishga kirishgan "Kapalak mavsumi" novellasi ham bu borada anchayin tosh bosadi. Asar Nakmuraxonimning kapalakka aylanib qolishi voqeasidan boshlangan. Bu hol roviy ayol qalbida yillar qa'riga singib ketgan

<sup>1</sup> Zuhridin Isomiddinov, Ikki ayol. «Tafakkur» jurnalining 2007-yil, 4-soni



orzularini uyg'otib yuboradi. So'z san'ati inson ruhiyati bilan ish ko'rar ekan, ruhiyatni ampermetr, barometr, atsellograf, kardiograf, analizator, aeromagnitometr kabi fizik asbob-uskuna bilan o'lchab ham, har lahzada ming tovlanadigan inson ruhiyatini aniq bir matematik formulalarga solib ham bo'lmaydi<sup>2</sup>. Ayol ruhiyatida shunday ajib evrilishlar sodir bo'ladi. U Nakamuraxonimdek kapalakka aylanishni, turmush chambaragiga tinimsiz o'rayotgan to'rt devor ichidan keng va musaffo osmonga chiqishni, mayda tashvishlar zanjiridan bir zunga halos bo'lishni istab qoladi. Ayol- hayot yo'lida hali ham o'zini bir boshlovchi deb biladigan omadsiz jurnalist. Yo'q, uni omadsiz deb bo'lmaydi. Odamlar uning oilasiga havas bilan qarashadi, baxtli deb o'ylashadi. Hayotlari tinch, bir zaylda o'tib borayotgani rost. Har kuni bir xil taom yeyilaversa, me'daga tegadi. Bir xil rang ko'zni toliqtiradi. Bir xilda aytilgan so'zlar kishini zeriktiradi. Ayol aynan shundan norozi. "Axir erga tegsam, hamma orzularimga erisharman... Turmushga chiqsam bo'ldi, chin hayot boshlanadi..." deb o'ylagandi. Ammo qani o'sha yangilanish?

Har qanday badiiy asarda muallifning bir qirradi aks etgan bo'ladi. Yozuvchi Nazar Eshonqul ta'biri bilan aytganda, roviy-adibning bir parchasi<sup>3</sup>. Novelladagi roviy ayolga yozuvchining qalb og'riqlari, quvonchi va o'ylari ma'lum ma'noda o'tgan. Ayol qalbini ayol yaxshiroq tushunadi. Latsuko Takaxasining bu boradagi yutug'i ham shunda.

Hikoyachiga o'z turmushidan ko'ra o'zga ayollarning hayoti yorqindek. Oqibatda tushuniksiz, mubham hissiyotlar qurshovida qoladi: "Nega o'zgalar derazasidagi shu'la jozib ko'rinadi-yu, xonamni charog'on etgan chiroq ko'nglimni yoritmaydi?" Ba'zan kichik kulgu ortida katta iztiroblar yotgan bo'ladi. Ba'zan odam baxtsizligini yashirish uchun o'zini shodon ko'rsatishga urinadi ham. Ayol "qo'shning g'oz tuya ko'rinar" qabilida ana shunday xatti-harakatni payqamaydi. Vaholanki, u havas bilan sanab o'tgan Yummi, Mari, Asay xonim-barchasi hayotidan o'zicha norozi, o'zicha "baxtsiz" ayollardir. Inson psixologiyasining xolis va to'g'ri tasviri o'quvchini badiiy asardan uzoqlashtirishi emas, aksincha, yaqinlashtirishi lozim. Garchi, qalamning vazni qamish poyasi, g'oz pati bilan o'lchansa-da, insonshunoslik mas'uliyatini bo'yniga olgan odam pokiza, sohibi hikmat, xalq dostonlaridagi bahodirlardek alp bo'lishi lozim<sup>4</sup>. Latsuko Takaxasi ana shunday alplik bilan ayol qalbidagi ruhiy po'rtanalarni, xayoliy kechinmalarni qalamga olgan. Shuning uchun ham roviy ayoldan jahlimiz chiqmaydi, ishlaridan o'pkalamaymiz, balki xayolan unga, uning o'ylariga yanada yaqinroq kirib boramiz. Asarda keltirilishicha, bir fransuz yozuvchisi: «Uy bekasi misoli pillaqurti. Har kuni ovqat qiladi, kir yuvadi, uy supuradi – tinimsiz qobig'iga o'raladi. Ayni damda qobig'ini yorib chiqib, erkin, mo'jaz kapalakchaga aylanishni orzu qiladi» deydi. Ayol o'z xohishlarining ham qobiqda tug'ilib, qobiqda jon berayotganidan xavotirlandi va shu paytga qadar qobig'i havosini almashtirib turishni xayol ham qilmaganidan xafa bo'ldi. Shuning uchun bir maromda o'tmish umriga va hech bir narsaga erishmayotganidan o'z-o'ziga isyon qilmoqchi, kapalakka aylanmoqchi. Millat bolalarini ayollar

<sup>2</sup> Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G'afur G'ulom NMIU, 2016. – 289 b

<sup>3</sup> Iztirob quvonchi (2010)«Yosh kuch» jurnali

<sup>4</sup> Uzoq Jo'raqulov/Ko'zgu siniqlari yoxud aytilmagan so'z qudrati. "Sharq yulduzi" jurnali, 2013-yil, 3-son.



dunyoga keltiradi, tarbiyalaydi. Ular bir vaqtning o'zida rafiq, ona, kelin va farzand bo'la oladi. Shodlik, g'am, muhabbat, nafrat, sadoqat, matonat, alam, mehr, qahr, shafqat kabi ming bir bo'yoqqa sig'maydigan ranglar bor bu qalblarda. Ayol - Allohning eng zavqli ixtirolaridanki, uning hatto muammolari ham "rang-barang". U hissiyotlariga nisbatan qilingan adolatsizlikni kechirolmaydi. Rovi ayol ayni damda shunday holatda. U befarq va juda zerikarli eri Kenkiti Saymuraning ardog'ida bo'lishni istaydi. Ketil uzilmaydigan ishlarga qo'l siltagisi keladi. Ayol aylanishni orzu qilgan kapalak aslida erk va ozodlik ramzidir. Buning ustiga, kapalak har qanday ko'zni o'ziga jalb qila oladigan nafis hasharotdir. Tomir-tomirida jo'sh urgan mehr va e'tiborga tashnalik tuyg'usi ayolning bejizga kapalakni tanlamaganligini ko'rsatadi.

Har bir xalqning adabiyoti xalqning o'zidan va shu xalq yaratgan tarixdan ayro yashay olmaydi. Yapon adabiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u o'z yaratuvchisi, ya'ni o'z xalqi bilan uzviy bog'liqdir. Yapon adabiyoti yapon madaniyatida o'rin tutgan barcha hodisalarni o'zida mujassam etadi. Yapon jamiyati hayotidagi har bir o'zgarish adabiyotda ham o'z aksini topgan. Yapon adabiyoti insonning borliqqa qarashi, hayotga munosabati, muayyan did va intilishga egaligi haqida o'ziga xos tasavvur uyg'otishi bilan ahamiyatlidir<sup>5</sup>. Yana inson ruhiyatining ochilmagan qirralarini kashf etishimizda yordam beradi.

Rovi ayol kimdir tashqaridan turib o'zidagi ko'rinmas qobiqni sindirishini istaydi. Qobiq ramziy ma'noda ichkaridagi "men"ni tashqariga chiqarmayotgan to'siq, qafasdir. Tashqaridan ko'mak kutish esa befoyda. "Sindirish"ni ichkaridan qilish kerak. Chunki tuxum agar tashqaridan sindirilsa, undagi hayot alomati buziladi. Ichkaridan sindirilsa, yangi jon vujudga kelganidek, orzularning "tirik qolishi" va yangitdan "ko'z ochishi" uchun ham kurashmoqni ichkaridan boshlash lozim.

Ayolning fikricha, o'zgalar hayotidan uni ikki narsa to'sib turadi: uyi devorlari va qobig'i. Axir uyning o'zi bir qobiq-ku! Qobiq ichida qobiq bo'ldimi, erkning holiga voy. O'zi erkka talpinayotgan narsa nima? Yurak va unga oshiyon qurgan orzu-maqсадlar emasmi? Ayol "asirlar"ni halos qilish uchun hatto "...pichoqni olib ko'ksimga sanchsam-chi! Axir ko'p hasharotlar o'z qobiqlarida bo'g'ilib o'lishadi-ku!" deyish darajasiga boradi. Erining jiyani Tadzima kapalakni "yengiltak, o'tkinchi bir jonzo", "ayol makrining soyasi" deb biladi. Rovi uchun ular bexayolikning emas, ozodlikning, nafosatning timsoli. Balki ayolni Tadzimaning zo'rliklaridan qutulishga undagan kuch ham "kapalakning to'shakda yotmas"ligi-yu erkka tashnaligi bo'lgandir.

Ko'pincha asarda inson va jamiyat, inson va tabiat, inson va inson o'rtasidagi konflikt tahlil qilinadi. Biz esa bu novella uchun inson va hissiyot kategoriyasini qo'llashni lozim topdik. Axir inson, ayol o'z hissiyotlarini tushunmayapti, jilovlay olmayapti. Afsuski, tuyg'ularning ham bo'ysungisi yo'q. Niyati ushlab, kapalakka aylanganida o'zida birorta yengillik sezmaydi ayol. Kurashgani sarob ekanini bilib, bo'shashib, lanjlanib qoladi. Biroq uning nazdida oldinda tong bor. Tong-yangi umidlar manbayi. Xulosa qilib aytganda, insonning eng nozik, yashirin nuqtasi -ko'ngil. Unda tuyg'ular raqsiga, ruhiyat manzaralariga guvoh bo'lish mumkin. Latsuko Takaxasi ana shunday ko'ngil evrilishlarini va

<sup>5</sup> Hakima G'AFUROVA, "Xitoycha hikmat – yaponcha qalb"/ "Jahon adabiyoti" jurnali, 2013.–5-son



ayollarning hali to'liq qalamga olinmagan qator fazilat-u illatlarini ustalik bilan adabiyotga olib kirgan ijodkorlardan biridir. "Kapalak mavsumi" novellasida ayol ruhiyatining bir qadar yuqoriroq ochib berilganini kuzatamiz.

## Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Eynshteyn bilan iblisvachcha.[Matn]: hikoya va novellalar/ Dino Butssati; tarjimon: U.Jo'raqulov-T.: "Ziyo nashr" nashriyoti 2020.-144 b.
2. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G'afur G'ulom NMIU, 2016. – 289 b.
3. Hakima G'AFUROVA, "Xitoycha hikmat – yaponcha qalb"/ "Jahon adabiyoti" jurnali, 2013–5-son.
4. Uzoq Jo'raqulov/ Ko'zgu siniqlari yoxud aytilmagan so'z qudrati. "Sharq yulduzi" jurnali, 2013-yil, 3-son.
5. Iztirob quvonchi (2010)«Yosh kuch» jurnali.
6. Zuhridin Isomiddinov, Ikki ayol. «Tafakkur» jurnalining 2007-yil, 4-soni.
7. <https://ru.m.wikipedia>